



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG‘I

Toshkent sh.

№ id 8

2023-y. “27” 11

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Mamlakatimizda madaniyat va san‘atni rivojlantirish hamda soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni samarali tadbqiq etish va muvofiqlashtirish, shuningdek, Kinematografiya agentligi faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-sonli Farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu Farmonga muvofiq Madaniyat va turizm vazirligi negizida Madaniyat vazirligi tashkil qilinganligi hamda Kinematografiya agentligining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoniga 1-ilovaning 16.2-pozitsiyasidagi boshqaruv shtat birliklari Kinematografiya agentligining markaziy apparatida to‘liq saqlanib qolinishi belgilanganligi munosabati bilan Kinematografiya agentligi boshqaruv xodimlarining cheklangan soni **40 ta** shundan Markaziy apparat **37 ta**, “Qoraqalpoq kino” agentligi **3 ta** etib belgilansin.

4. Kinematografiya agentligining viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo‘limlari tugatilganligi munosabati bilan ularning vazifa va funksiyalari Kinematografiya agentligiga o‘tkazilsin.

Bunda, hududlarda kino san‘ati sohasini rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish va sohadagi qonunchilik hujjatlari ijrosini nazorat qilish, shuningdek aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish Kinematografiya agentligining asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari hududlarda kinematografiya sohasida doimiy monitoring o‘tkazib boradi.

5. Milliy kino san‘atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni tizimli davom ettirish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yurtimizda jahon tajribasi asosida kino ishlab chiqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy kinosanoat infratuzilmasini yaratish maqsadida quyidagilar:

Kinematografiya agentligi markaziy apparatining tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq;

Kinematografiya agentligi huzuridagi “Qoraqalpoqkino” agentligining tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq;

Kinematografiya agentligi markaziy apparatidagi lavozimlar ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Kinematografiya agentligi (**F.Abduxalikov**):

Kinematografiya agentligining viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo‘limlari tugatilganligi sababli Kinematografiya agentligi bilan tuzilgan mehnat shartnomalari amaldagi qonunchilikka mos ravishda bekor qilish choralarini ko‘rsin;

Kinematografiya agentligining viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo‘limlari balansidagi binolar, asosiy vositalar to‘liqligicha inventarizatsiyadan o‘tkazilib, tegishli tartibda Kinematografiya agentligi balansiga qabul qilinsin;

Agentlikning shtatlar jadvalini ishlab chiqib, Madaniyat vazirligi bilan kelishgan holda Iqtisodiyot va moliya vazirligidan tasdiqlatish choralarini ko‘rsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari A.Tadjixanov va Kinematografiya agentligi direktori F.Abduxalikov zimmasiga yuklatilsin.


Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023 yildagi PF-114-son Farmoni

Vazir




O. Nazarbekov

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparatining
 TUZILMASI**



Kinematografiya agentligi huzuridagi "Qoraqalpoqkino" agentligi
TASHKILIJ TUZILMASI



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni —3 nafar.
Ishtab chiqarish, xizmat ko'rsatish va texnik xodimlar soni Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'alilikni qisqartirish va bandlik-vazirligi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi.

**Agentlik markaziy apparatidagi lavozimlar
RO'YXATI**

T/r	Lavozimlar
Raxbariyat	
1.	Direktor
2.	Direktor o'rinbosari
3.	Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish hamda Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi
4.	Maslahatchi – Ekspert kengashi raisi
5.	Ijro apparati rahbari
6.	Tashkiliy-nazorat, axborot -tahlil va metodologiya bo'limi boshlig'i
7.	Matbuot xizmati rahbari
8.	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
9.	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
10.	Badiiy va Ekspert kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i
11.	Ishlar boshqaruvchisi-Moliya iqtisod boshqarmasi boshlig'i
12.	Ijro intizomi nazorati hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi boshlig'i
13.	Kinoloyihalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
14.	Bosh yuriskonsult
15.	Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi bo'limi boshlig'i-Bosh hisobchi
Boshqaruv xodimlari	
16.	Badiiy va Ekspert kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi
17.	Direktor yordamchisi
18.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi
19.	Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi bo'limi bosh mutaxassisi
20.	Moliya-iqtisod va buxgalteriya hisobi bo'limi yetakchi mutaxassisi
21.	Kinematografiya infrotuzilmasi, xo'jalik ishlari va investitsiya dasturlari bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi
22.	Kinematografiya infrotuzilmasi, xo'jalik ishlari va investitsiya dasturlari bilan ishlash bo'limi yetakchi mutaxassisi
23.	Kinoloyihalar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi
24.	Kinoloyihalar bilan ishlash bo'limi yetakchi mutaxassisi
25.	Ruxsatnomalar berish masalalari bilan shug'ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishni ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi
26.	Ruxsatnomalar berish masalalari bilan shug'ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishni ta'minlash bo'limi yetakchi mutaxassisi

27.	Ta'lim yo'nalishini muvofiqlashtirish bo'yicha bosh mutaxassis
28.	Tashkiliy-nazorat, axborot -tahlil va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi
29.	Ijro intizomi nazorati hamda jismoniy va yuridik shaxslaning murojaatlari bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi
30.	Ijro intizomi nazorati hamda jismoniy va yuridik shaxslaning murojaatlari bilan ishlash bo'limi yetakchi mutaxassisi
31.	Tizim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi
32.	Matbuot xizmati bosh mutaxassisi
33.	Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi
34.	Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi
35.	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xizmati bosh mutaxassisi
36.	Birinchi bo'lim
37.	Devonxona
Ishlab chiqarish xodimlari	
38.	Badiiy va matn muharriri
39.	Badiiy va matn muharriri
40.	1-toifali mualliflik huquqi bo'yicha mutaxassis
Texnik xodimlar	
41.	Xo'jalik mudiri
42.	Muhandis (mexanik)
43.	Rahbar kotibi
44.	Rahbar kotibi
45.	Ish yurituvchi
46.	Kassir
47.	Arxivarius
48.	Aloqa muhandisi
49.	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatish va axborot saytlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha texnik
Xizmat ko'rsatish xodimlari	
50.	Xizmat avtotransporti hayovchisi
51.	Xizmat avtotransporti hayovchisi
52.	Xizmat avtotransporti hayovchisi